

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TERMINLARNING IFODALANISHI

Mustafaqulova Maftuna Ihom qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ixtisosligi 1-bosqich magistranti.

Eshmurodova Dildora

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Fil.f.f.d., (Phd).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11544662>

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida termin tushunchasi va ularning ifodalanishiga bag'ishlanadi. Shuningdek, ilmiy maqolada terminologiya tadqiqoti va uning rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: terminologiya, nomenklatura, polisemiya, sinonimiya, toponim, nomen.

EXPRESSION OF TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

Abstract. This article is devoted to the concept of the term and their expression in English and Uzbek languages. Also, the scientific article provides information about terminology research and its development stages.

Key words: terminology, nomenclature, polysemy, synonymy, toponym, nomen.

ВЫРАЖЕНИЕ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Данная статья посвящена понятию терминов и их выражению в английском и узбекском языках. Также в научной статье представлена информация об исследовании терминологии и этапах ее развития.

Ключевые слова: терминология, номенклатура, полисемия, синонимия, топоним, номен.

Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud.

Birinchi g'oyaga ko'ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etilsa, ikkinchi ta'limotga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so'zlashuv) ga tenglashtiriladi.

Sterninning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan,ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi.Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida

shakllanadi varivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi.

Sterninning qayd etishiga ko'ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir.¹ Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz. Termin so'zini turlicha tushunish mavjud.

Chunonchi, mantiqshunos(logik)lar uchun termin aniq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin. Fan va texnikada termin-sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi. Bunday so'zlarning qo'llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumtil terminlaridan farqli o'laroq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o'z ma'nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy terminologik maydon mos keladi.

Fandagi har qanday rivojlanish, taraqqiyot ilmiy terminlarning yuzaga chiqishi yoki oydinlashishidan darak beradi. Tamg'alangan (markerlangan va tamg'alanmagan (markerlanmagan) birliklar nazariyasi mantiqiy (logik) bo'linishning rivojlanish va takomillashishida yangi qadam sanaladi. Termin ta'rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko'pdan-ko'p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta'riflarda termin maxsus ilmiy texnikaviy tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi tarzida tavsiflanadi.

Sagerning fikricha, terminalogiyani o'rganish itilimizda yo'qolib borayotgan so'zlarni saqlab qolisgga imkon beradi egab fikr ilgari surilgan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z o'zidan, stixiyali tarzda paydo bo'lmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi.²

Valginaning mulohazasiga ko'ra termin borliqdagi jamiki jonli, jonsiz mavjudotlar, narsa-buyumlar, shaxslar to'g'risidagi umumiy tushuncha ekanligini ta'kidlaydi.³

Haugenning ta'kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi. Terminni notermindan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta'riflashning mumkin emasligidadir.⁴

¹ Стернин, И.А. Лексическое значение слова в речи.. - Воронеж, 1995. – 36.

² Sager, J.C. A Practical Course in Terminology Processing. - Amsterdam: J. Benjamins, 1990.71-80 .

³ Валгина, Н.С. Активные процессы в современном русском языке: Учебное пособие. - Москва: Логос, 2001. -:26.

⁴ Haugen E. The Ekology of Language// Haugen E. The Ekology of Language:essaus by Einar Haugen/Selested and Introduced by Anvar S.Dil.Stanford, Californiya: Stanford University Press, 1972.

Leychik terminning ta'rifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi va terminning biror bir til so'z boyligidagi o'rini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug'aviy birliklarning alohida turi tarzida qaralishiga e'tiroz bildiradi hamda termin-funksiya, leksik birliklar qo'llanishining bir qo'rinishi, degan g'oyani ilgari suradi.⁵

Golovinning e'tirof etishicha jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoki muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi oqibatida voqelanadi.⁶

D.S.Lottening ishlarida terminga alohida belgi sifatida emas, balki aniq sistemaning a'zosi shaklida qarash, munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlangan. Uning fikriga muvofiq mazmun planidagi sistemli munosabatlar terminlarning sistem xarakterga egaligini belgilaydi.

Terminologiya har xil maktab, ilmiy jarayon va to'g'ri fikrlarga xos kategorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmui tarzida qaraladi. Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi to'siqlar, yasaliş pritsiplari va usullari xususida turfa g'oyalar, nuqtai nazarlar ko'zga tashlanadi. Ilm vakillarining nuqtai nazariga ko'ra termin maxsus so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, boshqa ataluvchi birliklarga ko'ra bir ma'noliligi, to'g'riligi, sistemaliligi, kontekstdan kelib chiqib o'rganilganda xoliligi hamda emotsional(hissiy) jihatdan neytralligi(hech qaysi turkumga kirmasligi) bilan ajralib turadi.

B.Yo'ldoshevning mulohazasiga ko'ra, bajarayotgan vazifasi(funksional) nuqtai nazaridan terminlar maxsus so'z emas, balki maxsus funksiyaga ega so'zlardir; terminning o'rni(rolini)ni xohlagan so'z bosishi mumkin. Derivatsiya deganda biz terminlarning yasalişini jarayonlarini anglashimiz mumkin bo'ladi.⁷ Yuqoridagi fikr tarafdorlarining o'ylashicha, termin nafaqat oddiy so'zning varianti, balki, yangi, o'ziga xos bo'lgan maxsus belgilarga ega alohida hosil qilingan birlik sifatida ham islatilina oladi.

A.Hojiyeva ta'kidlab o'tadiki, yangi terminlarning kelib chiqish sabablari yangi realiyalarni ifodalash ehtiyoji bilan baholanadi. Terminga maxsus talablar qo'yiladi, bunday jihat ularni umummilliy til, lahja hamda shevalardagi oddiy so'zlardan ajratib turadi. Nomenklatura terminologiyaga nisbatan yangi kategoriya hisoblanadi. Har qanday soha nomenklaturasi shu sohaga doir barcha tur nomlarini o'zida jamlaydi.⁸

⁵ Лейчик, В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. - М.: КомКнига, 2007:-108.

⁶ Головин, Б.Н. Введение в языкознание [Текст] / Б.Н. Головин. - Изд-во КомКнига, 2007. - 232 с.

⁷ Yo'ldoshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masa-lalari. Ixtisos kursi (tanlanma fan). O'quvslubiy qo'llanma.- Samarqand: SamDU nashri, 2006, 88 bet.

⁸ A.Hojiyev-O'zbek tili so'z yasaliş tizimi, Toshkent 2007 B.234.

Sh.Safovning e'tirof etishicha, terminlarning miqdori yuqori darajaga yetganda, maxsus qurilmani taqozo etadi. Masalan, hozirgi kunda 215 mingdan ortiq o'simlik turlarining har biriga alohida nom qo'yishga urinish foydasiz, bunday ishning imkoni ham bo'lmaydi.

Chunonchi, terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda termin -atamaistiloh so'zlaridan sinonimik uya Sir emaski, o'zbek tiliga davlat maqomi berilganda n keyin ba'zi subyektiv nuqtayi emaski emaski emaski emaski emaski emaski emaski emaski emaski emaski emaski emaski natijasida termin o'rnida atama derivatini qo'llash faollashdi nazarlar natijasida termin o'rnida atama derivatini qo'llash faollashdi nazarlar natijasida termin baynalmilal o'zlashmaga bir qaraganda har jihatdan mos tushgan so'zning qo'llanishi ma'quldek tuyuladi.

A.Hojiyev termin so'zini atama yasamasi bilan almashtirishning noto'g'ri ekanligi, uning sabab vaoqibatlarini xususida jiddiy mulohaza yuritgan edi.⁹ Texnika sohalari yoki tarmoqlarida qo'llanuvchi so'z va so'z birikmalari, atama shularni hisobga olgan holda, termin o'zlashmasini ilm-fan, texnika sohalari yoki tarmoqlarida qo'llanuvchi so'z va so'z birikmalari, xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha istiloh, so'zini shartli ravishda qo'yilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), so'zini shartli ravishda qo'yilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), arabcha istilohtarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish o'zini oqlaydi.

Xullas, terminlar umumadabiy so'zlardan tubdan farqlanuvchi leksik qatlamni o'zida mujassam etadi.

REFERENCES

1. A.Hojiyev - "O'zbek tili leksikologiyasi" -Toshkent 2001b.135.
2. A.Hojiyev-O'zbek tili so'z yasaliş tizimi, Toshkent 2007 B.234.
3. Haugen E. The Ekology of Language// Haugen E. The Ekology of Language: essaus by Einar Haugen/Selested and Introduced by Anvar S.Dil.Stanford, Californiya: Stanford University Press, 1972.
4. Sager, J.C. A Practical Course in Terminology Processing. - Amsterdam: J. Benjamins, 1990.71-80 .

⁹ A.Hojiyev - "O'zbek tili leksikologiyasi" -Toshkent 2001b.135.

5. Yoʻldoshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masa-lalari. Ixtisos kursi (tanlanma fan). Oʻquv uslubiy qoʻllanma.- Samarqand: SamDU nashri, 2006, 88 bet.
6. Валгина, Н.С. Активные процессы в современном русском языке: Учебное пособие. - Москва: Логос, 2001. -:26.
7. Головин, Б.Н. Введение в языкознание [Текст] / Б.Н. Головин. - Изд-во КомКнига, 2007. - 232 с.
8. Лейчик, В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. - М.: КомКнига, 2007:- 108.
9. Стернин, И.А. Лексическое значение слова в речи.. - Воронеж, 1995. – 36.